

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNING REFLEKSIV ONGI VA TANQIDIY
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI
NATIJALARI TAHLILI**

Murodov Texron Furqat o'g'li

*Samarqand shahar 3-son Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz bo'lajak pedagoglarning refleksiv ongi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining ilmiy tahlil natijalarini yoritdik. Tadqiqot davomida biz talabalarning o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy yondashuv va fikrni asoslab ifodalash ko'nikmalarining shakllanish jarayonini kuzatdik. Natijalarga ko'ra, refleksiv ta'lim metodlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fikrlash madaniyatini oshiradi, o'z faoliyatini tahlil qilishga va o'z ustida ishlashga undaydi. Maqolada tajriba natijalari jadval asosida tahlil qilinib, zamonaviy pedagogika uchun muhim xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: refleksiv ong, tanqidiy tafakkur, ta'lim innovatsiyasi, pedagogik refleksiya, kasbiy rivojlanish, mustaqil fikrlash, tajriba-sinov ishi.

**ANALYSIS OF THE RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE
DEVELOPMENT OF REFLECTIVE AWARENESS AND CRITICAL THINKING
OF FUTURE TEACHERS**

Murodov Tehron Furqat ugli

*Deputy Director for Educational Affairs, Samarkand City Children's Music and Art
School No. 3*

Annotation: This article presents the analytical results of an experimental study aimed at developing reflective consciousness and critical thinking among future teachers. Throughout the research, we observed the formation of self-awareness, decision-making independence, and evidence-based reasoning among students. The findings indicate that reflective teaching methods significantly enhance professional thinking, encourage self-assessment, and promote continuous personal growth. A summary table and analytical discussions are provided to demonstrate how reflective and critical thinking approaches shape modern teacher education.

Keywords: reflective thinking, critical analysis, teacher education, pedagogical reflection, innovation in education, professional growth.

**АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО
РАЗВИТИЮ РЕФЛЕКСИВНОГО ОСОЗНАНИЯ И КРИТИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Муродов Техрон Фуркат угли

Заместитель директора по воспитательной работе Самаркандской городской детской музыкально-художественной школы № 3

Аннотация: В данной статье рассматриваются результаты экспериментальной работы, направленной на развитие рефлексивного сознания и критического мышления будущих педагогов. В ходе исследования наблюдались процессы формирования самоосознания, самостоятельного принятия решений и аргументированного мышления у студентов. Результаты показывают, что применение рефлексивных методов обучения способствует повышению профессиональной культуры мышления и развитию педагогической самостоятельности.

Ключевые слова: рефлексивное сознание, критическое мышление, педагогическая рефлексия, инновации в образовании, профессиональное развитие.

Kirish. Hozirgi davr ta'limi bizdan o'quvchi va talabani faqat tayyor bilim bilan emas, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashish, o'z xulosasini shakllantirishga yo'naltirishni talab etmoqda. Biz, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar, bo'lajak pedagogning o'z fikrini tahlil qila olishi va kasbiy o'sishini boshqara bilishini zamonaviy pedagog shaxsining asosi deb bilamiz.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish, o'qituvchilik kasbining nufuzi va obro'sini oshirish, yangicha fikrlovchi, mustaqil faoliyat yurita oladigan pedagoglar sifatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. "Ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimi faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini, refleksiv madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat tushunchasi pedagogikaning izohli lug'atida esa quyidagicha ifodalanadi: ma'daniyat-jamiyat, ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan.

Falsafada – inson nazariy faoliyatining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning qonunlari yuzasidan mulohaza yuritishga yo'nalgan shakli. O'z xatti-harakatlari va hissiyotlari hamda ularning qonuniyatlarini tushunishga, olam sirlaridan voqmf bo'lishga intilish erta aniqlanmoqda; madaniyatning barcha bosqichlarida inson o'z xatti-harakatlari motivlari to'g'risida fikr yurita boshladi. Shunday bo'lsada, bu xatti-harakatlarning aksariyati ongli

motivlarga ega emas. Aynan shuning uchun ham oddiy xatti-harakatlar uchun ularning tarixiy kelib chiqishiga tegishli bo'lmagan, ammo mazkur xalqning umumiy bilimlariga asoslangan xulosalarni aks ettiruvchi ikkilamchi izohlar izlanmoqda. Bunday ikkilamchi izohlarning mavjud bo'lishi asosiy antropologik hodisalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'pchilik insonlar dastlab xatti-harakatlarni sodir etadilar, so'ngra esa ularni oqlashga urinadilar. Psixologik lug'atda refleksiya tushunchasi shunday izohlanadi: refleksiya (lotincha Reflexio-ortga nazar) – subekt tomonidan ichki psixik aktlar va holatlarni anglash jarayoni.

Men olib borgan tajriba davomida refleksiya, bu shunchaki fikr yuritish emas, balki insonning o'z faoliyati, qarorlari, xatti-harakatlari ustida chuqur o'ylab, ularni takomillashtirish jarayoni ekanini yana bir bor his qildim. Bizning asosiy maqsadimiz talabaning o'z o'quv faoliyatiga ongli munosabatini shakllantirish, uni tahlil asosida o'zgarishga tayyor holatga keltirish edi.

Asosiy qism. Tadqiqot davomida biz refleksiya va tanqidiy tafakkur o'zaro bog'liq jarayonlar ekanini amalda ko'rdik. Talaba o'z o'qish faoliyatini tahlil qila boshlaganda, u asta-sekin o'z fikrlarini tanqidiy baholashni o'rganadi. Shu sababli biz o'quv mashg'ulotlariga refleksiv tahlil mashqlari, "fikrlash jurnali", "debat asosida ta'lim" kabi metodlarni kiritdik.

Mazkur qarashlarda insonning o'zi tomonidan his qilinayotgan ong hodisalari to'g'risidagi o'z-o'ziga hisobot berish, shaxsiy psixik holatlarini tahlil qilish qobiliyati noadekvat tarzda o'zgardi. Refleksiya – ortga nazar, yani, insonning o'z fikrlari, xatti-harakatlarining dastlabki holatiga bir necha marotaba murojaat etish, tashqi kuzatuvchi o'rniga tura olish, nima qilayotgani, qanday angelayotgani, shu jumladan o'zini qay tarzda angelayotganini bilish qobiliyatidir. Ammo bu shunchaki subektning o'zini o'zi tushunishi va bilishigina emas, balki atrofdagilarning uni, shaxsiy xususiyatlarini, emotsional reaksiyalari hamda kognitiv (bilish bilan bog'liq bo'lgan) tasavvurlarini qanday bilishlari va tushunishlarini aniqlash hamdir.

Refleksiya mexanizm sifatida identifikatsiyaga qaraganda birmuncha kechroq shakllanadi. Bolada identifikatsiyaga nisbatan qobiliyat ancha erta namoyon bo'lsa, refleksiyaning ilk nishonalari maktabgacha yosh davridagi bolada, shaxsning yangi bilimlarni egallash manbai sifatida esa u kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda rivojlanadi. Refleksiya chetlanishga, turli holatlarni egallashga yordam beradi, bu o'z navbatida, o'zini o'zi chuqur va to'liq tahlil qilishning imkonini beradi. Kichik maktab yoshi davrida refleksiyaga bo'lgan qobiliyat birmuncha oqsaydi, uning dastlabki asoslarigina rivojlanadi. Kichik maktab yoshi davrining so'nggiga kelib, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytiruvchi hamda talabalik davrida o'zining yangi "Men"ini, ichki olamini yaratishga asos bo'lib xizmat qiluvchi refleksiv qobiliyatlar ortib boradi.

Ayrim talabalar dastlab o'z fikrini ifodalashdan tortingan bo'lsa, oradan uch oy o'tgach, ular mustaqil fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda faol bo'lishdi. Bu esa pedagogik refleksiya orqali inson tafakkuri o'sishining eng tabiiy shaklidir.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Biz shuningdek tanqidiy tafakkurga o'rgatishda bahs-munozara, hamda loyiha asosidagi o'qitish usullaridan foydalandik. Bu jarayonlar talabalarni mantiqiy fikrlashga, dalillar bilan ishlashga va o'z fikrini asoslashga o'rgatdi.

Natijalar va muhokama. Tajriba yakunida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, refleksiv mashg'ulotlar o'qituvchi va talaba o'rtasida yangi, insoniy hamkorlik muhitini yaratadi. Biz uchun eng muhim yutuqlardan biri, talabalar o'z o'quv faoliyatiga javobgarlikni his eta boshlashdi. Ular endi bilimni tayyor holatda emas, balki izlab, tahlil qilib, o'zlashtirish zarurligini angladilar.

Tahlil natijalari:

Talabalarning 81% i o'z fikrini dalil bilan asoslay olish qobiliyatini namoyon etdi;

76% i o'quv jarayonida refleksiv yozuvlar orqali o'z xatolarini aniqlay oldi;

69% i tanqidiy savol berish va bahsda ishtirok etish madaniyatini o'zlashtirdi.

Bu ko'rsatkichlar bizga refleksiya va tanqidiy tafakkur bo'lajak pedagogning kasbiy o'sishida ajralmas kompetensiya ekanini tasdiqlab berdi.

Madaniyatni keng ko'lamda anglash imkonini beruvchi ta'rif, bu uning ensiklopedik ta'rifidir: Madaniyat jamiyat rivojlanishi, inson ijodiy kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishining odamlar hayoti va faoliyatini tashkillashtirish turlari va shakllarida, ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan muayyan darajasidir.

Xulosa. Biz olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiv madaniyatni bu kabi tushunish insonning o'z kasbiy shakllanishiga, o'ziga nisbatan noyob shaxs sifatidagi, o'zining boshqalar va madaniyat bilan muloqoti usullariga ijodiy munosabatda bo'lish imkoniyatini izohlab beradi.

Kelgusida biz refleksiya va tanqidiy tafakkurni raqamli ta'lim tizimlari, virtual simulyatsiyalar hamda sun'iy intellekt yordamida o'rganish metodlari bilan integratsiyalashni maqsad qilganmiz. Chunki haqiqiy o'qituvchi, bu o'zini har kuni qayta tahlil qilib, har safar yangi g'oyalar bilan yashaydigan insondir.

Biz ishonamizki, bo'lajak pedagoglarning refleksiv ongi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali kelajak avlodga yangicha tafakkur madaniyatini singdira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norkulova G'.R. Bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari // Pedagogik ta'lim muammolari. – 2023. – №4. – B. 54–58.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ–5050-sonli qarori.

3. Tuychieva, O. N. (2020). ON THE PROBLEM OF TRAINING COMPETITIVE PERSONNEL FOR THE DIGITAL ECONOMY & Theoretical & Applied Science, 701-707

4. Tohirova M.Sh. Akmeologik yondashuv asosida pedagogik refleksiya shakllantirish // Zamonaviy ta'lim. – 2023. – №2. – B. 41–44.

